

## **ABDULLA AVLONIY ASARLARIDAGI “CHAQIMCHILIK” UMUMIY MA’NOLI LEKSEMA LARNING SINONIMIK MUNOSABATI**

Tojiboyeva Mushtariy

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

F. H. Yuldashev

Ilmiy rahbar f.f.f.d

Til – ma’naviyat ko‘zgusi. Uning imkoniyatlari cheksiz. Bu imkoniyatlar esa nutq bilangina yuzaga chiqadi. Uning kuch-qudrati nutq jarayonidagina namoyon bo‘ladi. Hazrati Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida til va nutq munosabatini shunday izohlaydi: “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa, tilning ofatidir”.<sup>1</sup> Shunday nutq egalari borki, ular so‘zlagan so‘zlarining oqibatida qanchadan-qancha insonlar qalbiga ozor yetadi, ba’zilarning o‘rtasidagi munosabatga ham ko‘pincha insonning nojoiz nutqi natijasida sovuqchilik tushadi. Salbiy xislatlar orasidagi chaqimchilik, g‘iybatchilik, munofiqlik, yolg‘onchilik kabi sifatlar aynan kishilar munosabatiga nifoq solishi shubhasiz. Tilimizda unday so‘zlar talaygina. Quyida ulardan ayrimlarining ma’nolari va sinonimlari haqida ma’lumotlar beriladi.

*Chaqimchilik* – chaqimchiga xos xatti-harakat va odad; gap tashuvchilik.<sup>2</sup> Shu o‘rinda “chaqimchi” so‘zi ham alohida izoh talab qiladi. “Chaqimchi leksemasi – birovning gapini birovga tashuvchi, biror kimsaning sirini ochuvchi, birovlar ustidan maxfiy xabar yetkazib turuvchi”.<sup>3</sup> “Chaqimchilik” so‘zi Abdulla Avloniyining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida boshqa bir atama, namimat, bilan keltirilgan. Asarda: “Namimat deb so‘z yurutmak, chaqimchilikni aytilur”,<sup>4</sup> - deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, ushbu so‘z “namimat” atamasi bilan keltirilgan. Asarda “namimat” so‘zining ma’nodoshi sifatida quyidagi so‘zlar keltirilgan.


Namimat

<sup>1</sup> Nutq mahorati. O‘quv qo‘llanma. R.Rasulov va boshqalar.– Toshkent, 2006. –B. 36

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 466

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 466

<sup>4</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1917. – B. 32



Tilimiz nihoyatda ma'nodosh so'zlarga boy. Bir tushunchani bir necha xil so'z bilan ifodalay olishchalik rang-barangdir. Yuqorida ko'rib chiqilgan "chaqimchilik" so'zining Abdulla Avloniy asarida keltirilgan ma'nodoshlaridan tashqari ham, xalqimiz orasida muomalada bo'lgan bir necha variantlari mavjud.

"Chaqmachaqar", "oyg'og", "xabarkushlik" kabi bir qator so'zlar ham aynan shu ma'noda insonlar nutqida iste'moldadir.

Nutq madaniyatida *to 'g'riso 'zlik* ham ahamiyatlidir. Ammo hamma vaqt barcha ham haq so'zni so'zlaydi, deya olmaymiz. *Yolg'on* so'z haqida gap yuritganda, izohli lug'atimizdagi "kizb", "kazzob" so'zлari e'tiborni jalb etmasdan qolmaydi. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Kizb deb yolg'on so'zni aytilar. Yolg'onchi kishilarni kozib deyilur"<sup>5</sup> kabi fikrlarni ko'ramiz. "Kazzob (arabcha – yolg'onchi; soxta; aldoqchi). 1. Yolg'on so'zlar so'zlovchi, yolg'onchi, aldoqchi. 2. Shunday shaxsga nisbatan so'kish, haqoratni bildiradi".<sup>6</sup> Yana boshqa manbalarda kazzob so'ziga quyidagicha ma'noni anglatishi haqida ma'lumot keltirilgan: "Kazzob – kozibning mubolag'a (kuchaytirma)shakli, ya'ni juda ko'p yolg'on gapiruvchi, doim aldovchi kimsa ma'nosini anglatadi".<sup>7</sup> Bundan xulosa qilgan holda ushbu so'zlarni quyidagicha darajalash mumkin.

<sup>5</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917. –B. 35

<sup>6</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 293

<sup>7</sup> <https://muxlis.uz/oz/blog/2112>



Kizb - yolg'on  
so'z

Kozib -  
yolg'onchi kishi

Kazzob - doim  
yolg'on  
so'zlovchi inson

Nutqimizdagi yana bir salbiy leksema borki, yuqoridagi sinonimik qator bilan umumiy semani hosil qiladi. Bu –g‘iybat leksemasi. “G‘iybat” so‘zining etimologiyasiga qaraydigan bo‘lsak, lug‘atlarda arabcha “uzoqlashmoq, ko‘zdan g‘oyib bo‘lmoq”, “yashirin qolmoq” kabi ma’nolarni bildiruvchi “g‘ayb” so‘zining o‘zagidan olingan. Bu so‘z kishining ortidan yaxshi va yomon so‘z bilan eslashni ifodalasa-da, ko‘pincha yomon so‘z bilan eslash ma’nosida ishlatiladi.<sup>8</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa ushbu so‘zga “G‘iybat (ar. – yo‘qlik; mavjud emaslik; vaqtincha yo‘q bo‘lish) birovni kamsitib, aybsitib, yomonlab gapirish fisq-fasod”<sup>9</sup> degan ta’rif berilgan. G‘iybatchi esa “g‘iybat qiluvchi, g‘iybatni odat qilgan kishidir”<sup>10</sup>. Bu ma’nolardan xulosa qilgan holda nutqimizdagi bunday so‘zlarni ma’lum leksik guruhlarga ajratish mumkin:

“Yolg‘on” umumiy ma’noli leksemalar guruhi: *yolg‘on so‘z, o‘tirik, yolg‘onchi, aldoqchi, aldamchi, o‘tirikchi va boshqalar.*

“G‘iybat” umumiy ma’noli leksemalar guruhi: *mish-mish, g‘ammoz, o‘sak g‘iybattlashmoq, g‘iybatchi, gapchi yoki gepchi, g‘ammozlik kabilar.*

“Chaqimchilik” umumiy ma’noli leksemalar guruhi: *chaqimchi, chaqmachaqar, xabarkushlik, chaqib bermoq, gap yetaklamoq, gap tashimoq, oyg‘og‘ kabilar.*

Har uchala guruh esa birlashib tilimizda “Munofiqlik” umumiy ma’noli leksemalar guruhini tashkil etadi. Bu guruhni yana bir qancha tarmoqlarga ajratish mumkin. Tilimizda bunga imkoniyatlar juda kengdir.

<sup>8</sup> M.Sh.Juman, A.Muhammad.Dinda savolim bor.5-kitob. T.:2006.21-bet.

<sup>9</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. V. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 445

<sup>10</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. V. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 445